

BOBUR-Shoh va shoir

Najmjiddinova Sarvara

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada mumtoz adabiyotimizning eng yirik darg'asi Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti , ijodiy faoliyati haqida so'z yuritilgan , buyuk bobokalonimizning qisqacha shajarasi , Bobur hayotining muhim sanalari , qolaversa “ Boburnoma” asari , Boburning me'moriy komplekslari Bobur haqidagi tadqiqotlar haqida ham ayrim fikrlar yuritilgan va mulohazalarqilingan.

KALIT SO'ZIAR: Zahiriddin Muhammad Bobur mumtoz adabiyot , Boburnoma , ijdkor boburiylar , Bobur me'moriy kompleks.

Bobur o'zbek adabiyotining yirik namoyondalaridan biri , shoir , adib , olim , sarkarda , davlat arbobi “ Buyuk Boburiylar sulolasi” asoschisi . Bobur 1483-yil 14-fevralda Andijon shahrida Farg'ona ulusining hokimi Umarshayx Mirzo va asli chingiziylardan bo'lgan malika Qutlug' Nigor Xonim oilasida dunyoga keladi . Boburning asl ism (Zahiriddin Muhammad) bo'lib Bobur esa uning taxallusi “ Bobur” so'zi forsiy tilidan “babr” ya'ni “bars” , “ yo'lbars” degan ma'noni bildiradi . Boburning otasi Umarshayx Mirzo Sohibqiron Amir Temur avlodidan . Amir Temurning uchinchi o'g'li Mironshoh Mirzoning evarasi bo'lgan . Boburning onasi Qutlug' Nigor Xonim mug'ul xonlaridan biri Yunusxonning qizi bo'lgan .

Barcha shahzodalari kabi Zahiriddin Muhammad Bobur ta'lim va tarbiyani otasining saroyida oladi. Biroq Bobur otasidan erta ayrıldı . 1494-yil Umarshayx Mirzo baxtsiz hodisa tufayli dunyodan ko'z yumadi . 12 yoshida Bobur otasining o'rniga taxtga o'tirishga majbur bo'ladi . Uhukim dor bo'lgan yillarda Temuriy shahzodalar o'rtasida toju taxt uchun ayovsiz kurash boshlanadi . Yosh Zahiriddin Andijon taxti uchun amakisi Sulton Ahmad Mirzo va ukasi Jahongir Mirzo bilan kurashishga to'g'ri

keladi . Bobur ukasi bilan murosaga kelishga harakat qiladi Jhongir Mirzoga Farg'ona ulusini ikkiga taqsimlab , yarmini topshiradi . O'zi bo'lsa Samarqand uchun bo'layotgan kurashlarga kirishadi .

Kurashlar hech qanday natija bermaydi , undan katta harbiy kuchga ega bo'lgan Shayboniyxonning qo'li baland keladi. Bobur Samarqandni tark etadi . Biroq Shayboniyxon 1504-yili Andijonni ham qo'lga kiritadi va Bobur janub tomon bosh olib ketishga majbur bo'ladi. Kobul ulusida o'z hokimiyatini o'rnatadi . 1505-1515 yillar davomida u Markaziy Osiyoga qaytishga harakat qiladi , biroq bu urinishlaridan ham hech nima chiqmidi . Bobur o'z mavqeyini tiklash maqsadida 1519-1525 yillarda Hindiston uchun bir necha marta janglar olib boradi . 1526-yil Panipatda Hindiston sultonii Ibrohim Lo'di bilan jang qiladi. 1527-yili esa Chitora hokimi Rano Sango bilan jang olib boradi. Ikki kurashda ham Boburning qo'li baland keladi . Shu bilan Bobur Hindistonda o'z hokimiyatiga asos soladi . Bobur asos solgan sulola esa tarixda eng yirik sulolalardan biri deb nom oladi . Uning avlodlari 35-yildan ortiq Hindistonda hukmronlik qiladi .

Boburning hukmronlik yillarida Hindiston gullab – yashnaydi . Adabiyot , san'at , shaharsozlik rivojlanadi . Uning o'g'llari va avlodlari davrida Hindiston qudratli mamlakatlardan biriga aylanandi . Boburning avlodlari bobosining bunyodkorlik ishlarini munosib davom ettiradi. Mamlakatda mukammal ma'naviy – ruhiy muhit vujudga keladi . Hindiston tarixida Boburning ahamiyati katta hisoblanadi . Yirik Hind olimi Javoharla'l Neru u haqida shunday fikr aytadi: " Bobur Hindistonga kelgandan keyin katta siljishlar yuz berdi va yangi rag'batlantirishlar hayotga , san'atga , arxitekturaga toza havo baxsh etdi , madaniyatning boshqa sohalari esa bir-birlariga tutashib ketadi " . Bulardan so'ng Bobur uzoq yashamadi . 1530-yilida Agrada 47 yoshida vafot etadi.

Boburning ijodiy faoliyati , Bobur 18-19 yoshlarida ruboiy va g'azallar yoza boshlagan. Uning " Topmadim " radifli g'azali va " Yod etmas emish kishini g'urbatda kishi " misrasi bilan boshlanuvchi ruboysi o'sha davrdagi

hayoti bilan bog'liq. Shoirning ulkan san'atkorligi shundaki , shaxsiy kechinmalarini jiddiy umumlashma darajasiga ko'tara oladi va natijada asarlarida olg'a surilgan g'oyalar umuminsoniy qadiryatlar darajasiga ko'tariladi . Bobur ijodida , xususan she'riyatida kindik qoni to'kilgan ona yurtini dildan qo'msash , uning tuprog'iga talpinish , g'ariblik azoblaridan o'tli hasrat , yoru diyor sog'inchi va visol ilinji , taqdir zARBalari va turmush uqubatlari , zamona nosozliklaridan nola badiiy tahlil etiladi . Shoir ijodida ish – muhabbat , sevgi – sadoqat , visol va hijron mavzusi ham salmoqli o'rIN olgan . Uning g'azal va ruboiylarida , tuyuq va masnaviyalarida ma'shuqanING maftunkor go'zalligi , beqiyos husnu latofatligi , odob axloqi , nozu karashmasi yengil va o'ynoqi , musiqiy va ravon misralarda katta mahorat bilan tarannum etiladi . Boburning o'z she'riy asarlarini to'plab , devon holiga keltirgan aniq tarixiy sanalar ma'lum emas . Hozirda shoirning 119 ta g'azali , bir masnu she'ri , 209 ta ruboysi , 10 dan ortiq tuyuq va qit'alari , 50 dan ortiq muammo va 60 dan ziyod fardlari borligi aniqlangan . Devoni tarkibida umumiY hajmi 270 baytdan iborat 8 masnaviy ham o'rIN olgan . Bobur (1521) yillarda " Mubayyin " asarini yaratadi . Bu asarni Hindistonga yurish qilgan paytlari yozadi , masnaviy tarzida yozilgan , islam huquqshunosligi va shariat aqidalariga bag'ishlangan bu asarda Movarounnahr va Hindistonga oid o'sha davr ijtimoiy - iqtisodiy hayoti bo'yicha qiziqarli ma'lumotlar ham jamlangan edi .

Zahriddin Muhammad Bobur haqida bildirilgan fikrlar : Bobur Hindistonga kelgandan keyin katta siljishlar yuz berdi va yangi rag'batlantirishlar hayotga , san' atga , arxitekturaga toza havo baxsh etdi , madaniyatning boshqa sohalari esa bir – birlariga tutashib ketdi . (Islom Karimov)

Bobur fe'l – atvoriga qaraganda sevishga arzigulik . Uning manglayiga yuksak fazilatli inson deb bitib qo'yilgan . (Javaharlal Neru)

Boburning Hindistondagi qudrati uning bosib olgan yerlari bilan emas , u hind xalqining ko'nglida uyg'ota olgan hurmat – ehtirom bilan o'lchanadi. (Eduard Holden)

Foydalanilgan adabiyotlar;

1. <https://uz.m.wikipedia.org>
2. <https://jdpu.uz>
3. <https://tafakkur.net>
4. <https://uzbekistan.travel>